

## BUYUK BRITANIYA VA MALAYZIYADA ISLOM MOLIYA MUASSASALARINI SOLIQQA TORTISH YO'NALISHLARI

*Yoqubjonov Javohir Farhodjon o'g'li*  
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*  
*Islom iqtisodiyoti va moliyasi mutaxassisligi*  
*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, moliyaviy tizimi rivojlangan mamlakatlar, xususan, Angliya va Malayziyaning soliq tizimini takomillashtirish yo'llari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** *soliq qonuchiligi, bojlar, korporativ solig'i, bank ustama solig'i, shtamp boji.*

**Annotation.** This article discusses ways to improve the tax systems of financially developed countries, particularly those of England and Malaysia.

**Keywords:** *tax legislation, duties, corporate tax, bank surcharge, stamp duty.*

Islom moliya muassasalari, xususan Islom banklarining soliqqa tortishda bir qator ilg'or mamlakatlarda qonun-qoidalar mavjud. Xususan, Malayiza, Indoneziya hamda Angliya Islom moliyasida yetakchilik qilib, allaqachon mamlakat hududida soliq tizimini joyir qilishgan. Buyuk Britaniya esa, Islomiy Fintech markazi sifatida shariatga muvofiq moliyaviy muhitni qo'llab-quvvatlash borasida yetakchiligini isbotlagan.<sup>1</sup>

Angliya, Buyuk Britaniyaning bir qismi sifatida, rivojlangan va murakkab soliq tizimiga ega. Bu tizim Qirollik Soliq va Bojxona idorasi (HM Revenue and Customs) tomonidan boshqariladi. Ushbu tizim korporatsiyalar, tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirdorlar hamda boshqa yuridik shaxslarga tatbiq etiladigan turli xil soliqlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu tizim raqobatbardoshlik va soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash bilan birga, davlat xizmatlari va infratuzilmani moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Quyidagi soliq turlari hamda to'lovlar ustidan nazorat qilish ushbu davlat idorasining asosiy vazifalari hisoblanadi:<sup>2</sup>

- Daromad solig'i – Jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromad (ish haqi, ijara daromadi va boshqalar)dan olinadigan asosiy soliq turi.

<sup>1</sup> Rahayu, Komala & Yusuf: Enhancing Islamic Banking through Accounting and Taxation Harmonization: A Comparative Study of Indonesia and Malaysia **AABFJ** Volume 18, Issue 5, 2024. P 12.

<sup>2</sup> <https://www.gov.uk/government/organisations/hm-revenue-customs/about#responsibilities>

- Korporatsiya solig'i – Angliyada ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar (kompaniyalar) tomonidan yillik foyda asosida to'lanadigan soliq.
  - Kapital daromad solig'i – Mulk, aksiyalar yoki boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda uchun olinadigan soliq.
  - Meros solig'i – Shaxs vafotidan so'ng qolgan mulkdan olinadigan soliq turi.
  - Sug'urta mukofotlari solig'i – Sug'urta xizmatlaridan foydalanganlik uchun mijozlar to'laydigan mukofotlar asosida olinadigan soliq.
  - Marka, yer va neftdan olinadigan daromad soliqlari – Muayyan mulklar va tabiiy resurslar bilan bog'liq bo'lган tranzaksiyalarga nisbatan olinadigan soliq toifalari.
  - Atrof-muhitga oid soliqlar – Tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyatlar uchun joriy etilgan soliqlar.
  - Iqlim o'zgarishi yig'imlari va chiqindi poligonlari solig'i – Uglerod chiqindilari, chiqindilarning utilizatsiyasi va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi omillarga qarshi moliyaviy choralar.
  - Qo'shilgan qiymat solig'I – Tovarlar va xizmatlar iste'moliga nisbatan qo'llaniladigan umumxalq solig'i; import QQS ham shu doirada hisoblanadi.
  - Bojxona bojlari – Chetdan olib kirilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona to'lovleri.
  - Aktsiz yig'imlari – Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va yoqilg'i kabi maxsus tofalarga nisbatan belgilangan yig'imlar.
  - Savdo statistikasi – Import-eksport hajmlari va savdo faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish.
  - Milliy sug'urta badallari – Ish beruvchilar va ishchilar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badallari, pensiya va ijtimoiy ta'minot tizimi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
  - Soliq kreditlari – Past daromadli yoki farzandli oilalar uchun davlat tomonidan beriladigan qo'shimcha moliyaviy yordamlar.
  - Bolalar nafaqasi – 16 yoshgacha bo'lган yoki o'qiyotgan bolalar uchun oilalarga beriladigan muntazam nafaqa to'lovleri.
  - Eng kam ish haqi talabini nazorat qilish – Ishchilarga qonun bilan belgilangan minimal ish haqi to'lanishini ta'minlash.
  - Talaba kreditlarini undirish – Davlat tomonidan berilgan talaba kreditlarining qaytarilishini nazorat qilish va amalga oshirish.
  - Pul yuvishga qarshi nazorat – Moliya tizimida noqonuniy yo'l bilan olingan mablag'lar aylanmasining oldini olish va shaffoflikni ta'minlash.
- Ma'lumot uchun HMRC (Soliqlar va yig'imlarga mas'ul hukumat idorasi) 2023–2024 moliyaviy yilida jami 843,4 milliard funt sterling miqdorida daromad

yig‘ganini hisobot qilgan.<sup>3</sup> Bu raqam ketma-ket uchinchi yil davomida eng yuqori darajadagi ko‘rsatkich bo‘lib, 2022–2023 yilga nisbatan 3,6 foizlik o‘sishni anglatadi.

Buyuk Britaniyada joylashgan eng yirik islomiy banklardan biri bo‘lgan Al Rayan bank o‘zining yillik hisobotlarida to‘langan soliqlarga oid bir qator ma’lumotlar bergen.

Al Rayan, bank o‘zining moliyaviy faoliyatida shaffoflik tamoyillariga amal qiladi va ba’zi yillarda soliq to‘lovlari haqida aniq ma’lumotlarni ochiq e’lon qilgan. Xususan, 2020-yilda bank £4,2 million foyda ko‘rib, £536,000 miqdorida soliq to‘lagan.<sup>4</sup> 2021-yilda esa soliqdan oldingi foyda £1,735 million bo‘lganiga qaramay, hisobotda £4,772 million miqdorida soliq xarajati ko‘rsatilgan.<sup>5</sup>

Buyuk Britaniyada Islom banklari boshqa moliyaviy muassasalar singari umumiylar soliq tizimiga bo‘ysunadi. Biroq, shariatga muvofiq moliyaviy mahsulotlar xususiyatlarini hisobga olgan holda, hukumat Islomiy va an‘anaviy moliyaviy mahsulotlar o‘rtasida soliq tengligini ta’minlash uchun maxsus qonunchilik choralarini joriy qilgan.<sup>6</sup>

Buyuk Britaniyada banklar quyidagi asosiy soliqlarni to‘laydi:<sup>7</sup>

1. Korporativ solig‘i
2. Bank ustama solig‘i
3. Bank yig‘imi

Buyuk Britaniya hukumati yillar davomida banklar va yirik kompaniyalardan ko‘proq soliq olish orqali byudjetni barqarorlashtirishga harakat qilgan. Shu bilan birga, ular soliq yukini muvozanatda ushlab turish uchun ayrim soliqlarni tushirish va boshqalarini oshirish orqali strategik yondashuv qo‘llagan. Xususan, bank sektorining iqtisodiy kuchi va foydasi yuqori bo‘lganligi sababli unga nisbatan alohida soliq shakllari (bank ustama solig‘i va bank yig‘imi) ishlab chiqilgan.

Korporativ soliq - bu barcha kompaniyalarning foydasiga solinadigan asosiy davlat solig‘i bo‘lib, 2008-yildan beri muntazam ravishda qo‘llanilib kelinmoqda. Dastlab 28% bo‘lgan bu soliq yillar davomida bosqichma-bosqich kamaytirilib, 2017-yildan 2022-yilgacha 19% da ushlab turildi. Ammo 2023-yildan boshlab yirik foyda ko‘rsatuvchi kompaniyalar uchun yana 25% ga oshirildi. Bu o‘zgarish davlat byudjetini to‘ldirish va yirik kompaniyalardan ko‘proq hissa olishga qaratilgan.

Bank ustama solig‘i (Bank surcharge) - bu faqat yirik banklarga qo‘llaniladigan foydaga nisbatan qo‘sishcha soliqdir. U 2016-yilda joriy etilib, dastlab 8% miqdorida belgilangan. 2023-yilda ushbu stavka 3% ga tushirildi. Bu tushirish korporativ soliq

<sup>3</sup> HM Revenue and Customs - Annual Report and Accounts 2023 to 2024. P. 284.

<sup>4</sup> Al Rayan bank annual report and financial statements. 2020.

<sup>5</sup> Al Rayan bank annual report and financial statements. 2021.

<sup>6</sup> Martin Harrison, Islamic finance and the UK. P. 14.

<sup>7</sup> Antony Seely Taxation of banking. Available at <http://commonslibrary.parliament.uk>

stavkasining 25% ga ko‘tarilishi bilan bog‘liq bo‘lib, banklar uchun umumiy soliq yukini muvozanatlashga qaratilgan.

Bank yig‘imi (Bank levy) - bu banklarning Buyuk Britaniyadagi balans majburiyatlariga solinadigan alohida soliq turidir. 2011-yilda joriy etilgan bu soliq yillik darajada turlicha bo‘lgan bo‘lsa-da, 2016-yildan so‘ng stavkasi 0.10% da barqarorlashgan. 2021-yildan boshlab esa bank levy faqat Buyuk Britaniya ichidagi balans majburiyatlariga nisbatan qo‘llanilmoqda, ya’ni xalqaro faoliyatdan olinmaydi.

Biroq, 2022 va 2023 yillarga kelib, bank yuqori darajadagi foyda (mos ravishda £20,8 mln va £30,61 mln) ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ushbu yillarda aniq qancha soliq to‘langani yillik hisobotlarda alohida qayd etilmagan. Bu esa, bankning so‘nggi yillardagi moliyaviy ochiqligida ayrim chekllovlar borligini ko‘rsatadi.



**rasm. Buyuk britaniyada banklar to‘laydigan 3 ta asosiy soliq stavkalari tendensiyasi<sup>8</sup>**

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibtiki, banklar uchun eng katta soliq yukini korporativ solig‘i tashkil etadi.

Malayziya ham islom moliyasi bo‘yicha dunyoda yetakchi mamlakatlardan bo‘lib, mamlakatning soliq tizimi – barqaror va markazlashtirilgan va “Inland Revenue Board of Malaysia (LHDN)” tomonidan boshqariladi. Bu tizim yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni, savdo bilan bog‘liq soliqlarni va ba’zi turdagи xususiy to‘lovlarni qamrab oladi.

<sup>8</sup> [https://www.gov.uk/government/publications/rates-and-allowances-corporation-tax/rates-and-allowances-corporation-tax?utm\\_source](https://www.gov.uk/government/publications/rates-and-allowances-corporation-tax/rates-and-allowances-corporation-tax?utm_source)

[https://www.gov.uk/government/publications/amendments-to-the-surcharge-on-banking-companies/amendments-to-the-surcharge-on-banking-companies?utm\\_source](https://www.gov.uk/government/publications/amendments-to-the-surcharge-on-banking-companies/amendments-to-the-surcharge-on-banking-companies?utm_source)

[https://www.gov.uk/government/publications/bank-levy-rate-reduction/bank-levy-rate-reduction?utm\\_source](https://www.gov.uk/government/publications/bank-levy-rate-reduction/bank-levy-rate-reduction?utm_source)

Murojaat vaqt: 30.02.2025

Malayziyadagi eng asosiy soliq to‘lovlari va yig‘imlar quyidagicha tartibga solingan bo‘lib, ular mamlakatning fiskal siyosati va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu soliqlar yuridik va jismoniy shaxslarga, shuningdek, tovarlar va xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi.<sup>9</sup>

### 1. Daromad solig‘i

Daromad solig‘i – Malayziyada eng asosiy soliq turlaridan biri bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslarning daromadiga solinadi.

Rezidentlar uchun daromad solig‘i progressiv stavkalarda (0% dan 30% gacha) belgilanadi. Nerezidentlar esa barcha daromadlari uchun 30% stavkada soliq to‘laydi.<sup>10</sup>

Korxonalarining daromadiga 24% stavkada soliq qo‘llaniladi. Kichik va o‘rta bizneslar (SME) uchun imtiyozli stavkalar mavjud (15% dan boshlanadi).<sup>11</sup>

### 2. Savdo va xizmatlar solig‘i (Sales and Service Tax – SST)

Malayziyada hozirda Qo‘shilgan qiymat solig‘i mavjud emas. 2018-yil sentabr oyidan boshlab “Malayziya savdo va xizmatlar solig‘i“ tizimiga qaytdi. Ushbu soliq turi avvalroq, 2015-2018-yillarda “Tovarlar va xizmatlar solig‘i” deb atalgan edi.<sup>12</sup>

Malayziya savdo va xizmatlar solig‘i ikki asosiy qismdan iborat:

- Savdo solig‘i (Sales Tax): 5% yoki 10% ayrim ishlab chiqarilgan va import qilinadigan mahsulotlarga nisbatan qo‘llaniladi.<sup>13</sup>
- Xizmatlar solig‘i (Service Tax): 6% stavkada ayrim xizmatlar uchun (restoran, mehmonxona, transport, va boshqalar) to‘lanadi.<sup>14</sup>

2024-yil 1-martdan boshlab, xizmatlar solig‘i stavkasi ham 6% dan 8% gacha oshirildi.<sup>15</sup>

Biroq, ba’zi xizmatlar uchun 6% stavka saqlanib qoladi, jumladan:<sup>16</sup>

- Ovqat va ichimlik xizmatlari
- Telekommunikatsiya xizmatlari
- Avtoturargoh xizmatlari
- Logistika xizmatlari

### 3. Ko‘chmas mulkdan olinadigan foyda solig‘i (Real Property Gains Tax – RPGT)

Bu soliq ko‘chmas mulkni sotishdan olingan daromadga nisbatan qo‘llaniladi.

- Agar mulk qisqa muddat ichida (5 yil ichida) sotilsa, yuqori stavkada soliq olinadi (10%–30% oralig‘ida).<sup>17</sup>

<sup>9</sup> Mohammed Saleh Al-Maghrebi, Malaysian Tax System: An Overview. P. 12.

<sup>10</sup> <https://www.hasil.gov.my/en/legislation/act/> Murojaat vaqt: 13.04.2025

<sup>11</sup> <https://www.hasil.gov.my/en/company/tax-rate-of-company/> Murojaat vaqt: 13.04.2025

<sup>12</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Goods\\_and\\_Services\\_Tax\\_\(Malaysia\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Goods_and_Services_Tax_(Malaysia)) Murojaat vaqt: 13.04.2025

<sup>13</sup> WHAT’S NEW: SALES TAX AND SERVICE TAX (UPDATED - 29 FEBRUARY 2024). P. 2.

<sup>14</sup> WHAT’S NEW: SALES TAX AND SERVICE TAX (UPDATED - 29 FEBRUARY 2024). P. 2.

<sup>15</sup> WHAT’S NEW: SALES TAX AND SERVICE TAX (UPDATED - 29 FEBRUARY 2024). P. 3.

<sup>16</sup> WHAT’S NEW: SALES TAX AND SERVICE TAX (UPDATED - 29 FEBRUARY 2024). P. 4.

<sup>17</sup> <https://www.hasil.gov.my/en/rpgt/real-property-gains-tax-rpgt-rates/> Murojaat vaqt: 15.04.2025

- Uzoq muddat ushlab turilgan mulk uchun stavka kamayadi.

#### 4. Shtamp'a boji (Stamp Duty)

Bu turdag'i yig'im hujjatlar (shartnomalar, ko'chmas mulk savdosi, aksiyalar transferi) rasmiylashtirilganda to'lanadi.

- Masalan, ko'chmas mulk uchun odatda qiymatiga qarab 1% dan 4% gacha bo'lgan bojsiz soliq stavkalari mavjud.<sup>18</sup>

#### 5. Ijtimoiy xavfsizlik va pensiya yig'imi


- EPF (Employee Provident Fund): Ishchilar va ish beruvchilar pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar amalga oshiradi.

- SOCSO (Social Security Organisation): Mehnatga layoqatsizlik, baxtsiz hodisalar va kasalliklar holatlarida yordam beradigan ijtimoiy sug'urta tizimi.

Quyida Malayziyada yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan asosiy soliqlar grafik ko'rinishda tasvirlangan:

#### 2-rasm. Malayziyadagi asosiy soliqlar stavkasi dinamikasi

(2015-

2025)<sup>19</sup>

Malayziya zakotni davlat soliq tizimiga integratsiya qilgan birinchi davlatlardan biri hisoblanadi.<sup>20</sup> Bu jarayon 20-asr boshlarida boshlangan bo'lib, Kelantan shtatida 1916-yilda zakot yig'imi davlat tomonidan boshqarila boshlagan. Keyinchalik, boshqa shtatlar ham bu tizimni qabul qila boshlagan.

Malayziyada zakot to'lovleri soliqdan chegirma sifatida tan olinadi. 1967-yilda qabul qilingan Daromad Soliqlari to'g'risidagi qonun (Income Tax Act 1967)ga binoan, musulmon soliq to'lovchilari tomonidan to'langan zakot miqdori soliqdan chegirib tashlanadi.<sup>21</sup> 2007-yildan boshlab, bu chegirma kompaniyalar, kooperativlar va ishonchli jamg'armalar uchun ham amal qiladi.

<sup>18</sup> <https://www.cleartax.com/my/en/stamp-duty-malaysia>. Murojaat vaqt: 15.04.2025.

<sup>19</sup> <https://www.hasil.gov.my/en/legislation/> Murojaat vaqt: 22.04.2025.

<sup>20</sup> Nor Aini, The Advancement of Zakat Institution in Malaysian Post Islamic Revivalism Era, 2020, Journal of Al-Tamaddun. P. 3.

<sup>21</sup> W. Hegazy, Islamic Finance in Malaysia A Tax Perspective. P. 4.

Kompaniyalar (ayniqsa, Islomiy moliyaviy muassasalar) uchun zakot to‘lovlari quyidagi shartlar bajarilganda korporativ daromad solig‘idan chegirib tashlanishi mumkin.<sup>22</sup>

Zakot quyidagi holatlarda chegirma sifatida tan olinadi:

- Zakot ruxsat etilgan zakot yig‘uvchi tashkilotga (masalan, Lembaga Zakat Selangor) to‘langan bo‘lishi kerak.
- Zakot tegishli soliq davri ichida to‘langan bo‘lishi kerak.
- Zakot to‘lovi kompaniyaning biznes daromadiga tegishli bo‘lishi lozim.

Malayziyadagi eng yirik islom banklaridan biri “Maybank” 2024-yilgi hisobotida

2024 yilning 9 oyligi yakunlariga ko‘ra, Maybank umumiy moliyaviy faoliyati doirasida soliqlar va zakot to‘lovlari bo‘yicha muhim ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Hisobot davrida bank tomonidan RM726,617 ming miqdorida soliq to‘langan bo‘lib,<sup>23</sup> bu ko‘rsatkich 2023 yilning shu davridagi RM794,075 ming soliq to‘lovlari nisbatan kamaygan.<sup>24</sup> Soliq miqdorining pasayishi bank daromadlarining qayta tuzilishi, chegirmalar yoki boshqa soliq yengilliklari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, Maybank 2024 yilning 9 oyligida RM12,609 ming miqdorida zakot to‘lagan.<sup>25</sup> Bu esa 2023 yilgi shu davrda qayd etilgan (RM32,455) ming manfiy zakot ko‘rsatkichiga nisbatan sezilarli o‘zgarishni ko‘rsatadi. Manfiy zakot summasi odatda zakotning qayta baholanishi yoki avvalgi yillardagi ortiqcha to‘lovlarning hisobdan chiqarilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2024 yilda esa zakotning ijobiy summada to‘lanishi, Maybankning islomiy moliyaviy tamoyillarga sodiq qolgan holda daromadlarining muayyan qismini jamiyat farovonligiga yo‘naltirganini bildiradi.

Malayziya soliq qonunchiligiga muvofiq, kompaniyalar tomonidan to‘langan zakot miqdori soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladi.<sup>26</sup> Shu sababli, Maybank tomonidan to‘langan RM12,609 ming zakot summasi umumiy daromaddan chegirilgan bo‘lishi va natijada soliqqa tortiladigan asos kamayib, bankning yakuniy soliq majburiyati pasaygan bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, 2024 yilning 9 oyligi yakunlariga ko‘ra, Maybankning zakot va soliqlar bo‘yicha amaliyoti moliyaviy barqarorlikni saqlagan holda, islomiy moliya tamoyillarini ham to‘liq hisobga olganini ko‘rsatadi.

Malayziyadagi islomiy moliyalashtirishning 90% dan ortig‘i aynan bay bingham ajil va **murobaha** shartnomalariga asoslanadi. Malayziya Soliq Kodeksining

<sup>22</sup> Nor Aini, The Advancement of Zakat Institution in Malaysian Post Islamic Revivalism Era, 2020, Journal of Al-Tamaddun. P. 3.

<sup>23</sup> MAYBANK ISLAMIC BERHAD, Condensed financial statements. 2024. P. 1.

<sup>24</sup> MAYBANK ISLAMIC BERHAD, Condensed financial statements. 2023. P. 1.

<sup>25</sup> MAYBANK ISLAMIC BERHAD, Condensed financial statements. 2024. P. 1.

<sup>26</sup> Nor Aini, The Advancement of Zakat Institution in Malaysian Post Islamic Revivalism Era, 2020, Journal of Al-Tamaddun. P. 5.

2(7)-bandiga binoan, islomiy prinsiplar asosida tuzilgan bitimlardan olingan foyda **foiz daromadiga tenglashtiriladi.**<sup>27</sup>

**Foydalaniqilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rahayu, Komala & Yusuf: Enhancing Islamic Banking through Accounting and Taxation Harmonization: A Comparative Study of Indonesia and Malaysia. AABFJ, Volume 18, Issue 5, 2024.
2. Mohammed Saleh Al-Maghrebi, Malaysian Tax System: An Overview, p. 12.
3. Martin Harrison, Islamic Finance and the UK.
4. Nor Aini, The Advancement of Zakat Institution in Malaysian Post Islamic Revivalism Era, 2020, Journal of Al-Tamaddun.
5. W. Hegazy, Islamic Finance in Malaysia: A Tax Perspective.
6. Al Rayan Bank, Annual Report and Financial Statements, 2020.
7. MAYBANK ISLAMIC BERHAD, Condensed Financial Statements, 2023.
8. Antony Seely, Taxation of Banking. Available at <http://commonslibrary.parliament.uk>
9. <https://www.gov.uk/government/organisations/hm-revenue-customs/about#responsibilities>
10. [https://www.gov.uk/government/publications/rates-and-allowances-corporation-tax?utm\\_source](https://www.gov.uk/government/publications/rates-and-allowances-corporation-tax/rates- and-allowances-corporation-tax?utm_source)
11. [https://www.gov.uk/government/publications/amendments-to-the-surcharge-on-banking-companies?utm\\_source](https://www.gov.uk/government/publications/amendments-to-the-surcharge-on-banking-companies/amendments-to-the-surcharge-on-banking-companies?utm_source)
12. [https://www.gov.uk/government/publications/bank-levy-rate-reduction/bank-levy-rate- reduction?utm\\_source](https://www.gov.uk/government/publications/bank-levy-rate-reduction/bank-levy-rate- reduction?utm_source)
13. <https://www.hasil.gov.my/en/company/tax-rate-of-company/>
14. [https://en.wikipedia.org/wiki/Goods\\_and\\_Services\\_Tax\\_\(Malaysia\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Goods_and_Services_Tax_(Malaysia))

<sup>27</sup> W. Hegazy, Islamic Finance in Malaysia A Tax Perspective. P. 6.